


## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni – birlikda

2018 yil yanvar-oktabr holatiga




- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;
- Davlat statistika qo'mitasi Raisining virtual qabulxonasi orqali;
- Yagona Interaktiv davlat xizmatlari portalidan;
- Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali;
- To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojaatlar;
- Qo'mita rahbariyatining shaxsiy qabulidagi og'zaki murojaatlar;

Davlat statistika qo'mitasiga **2018 yilning yanvar-oktabr** holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **1346 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **77** tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, **29** tasi Davlat statistika qo'mitasi Raisining virtual qabulxonasi orqali, **18** tasi Yagona Interaktiv davlat xizmatlari portalidan, **222** tasi Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, **111** tasi og'zaki va **889** tasi to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojaatlar.

## Murojaatlar: (mazmun-mohiyat bo'yicha)

Ulushi—foizda




- Statistik ko'rsatkichlar;
- KTYaDRga oid ma'lumotlar;
- Ish stoji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlari;
- Statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan;
- O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan;
- Qo'mita vakolatlari va faoliyati bo'yicha ma'lumot olish;
- Boshqa masalalar;

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, **606** tasi (*jamiga nisbatan 45,0 foiz*) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlari ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan, **142** tasi (*10,5 foizi*) korxona va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan, **265** tasi (*19,8 foizi*) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish stoji, bsh haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan, **109** tasi (*8,0 foizi*) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan, **117** tasi (*8,7 foizi*) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan, **27** tasi (*2,0 foizi*) Qo'mita vakolatlari va faoliyati bo'yicha ma'lumot olish yuzasidan, **80** tasi (*6,0 foiz*) boshqa masalalar yuzasidan tashkil etган.

## Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni – birlikda



Davlat statistika qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan **949** ta (*o'tgan yilning shu davrida 1314 ta*) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan **92** ta (**133** ta), Namangan viloyatidan **38** ta, Qashqadaryo viloyatidan **31** ta, Farg'ona viloyatidan **30** ta, Xorazm viloyatidan **29** ta, Andijon viloyatidan **28** ta, Samarqand viloyatidan **28** ta, Jizzah viloyatidan **26** ta, Navoiy viloyatidan **23** ta, Buxoro viloyatidan **23** ta, Sirdaryo viloyatidan **20** ta, Qoraqalpog'iston Respublikasidan **12** ta, Surhondaryo viloyatidan **11** ta va boshqa hududlardan **6** ta murojaatlar kelib tushgan.

## Murojaatlarning ko'rib chiqish holati


Soni – birlikda



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan murojaatlarning **1071** tasiga chora ko'rildi, **258** tasi tushuntirildi, **17** tasi ko'rib chiqilmoqda, rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

## Murojaatlar turlari bo'yicha

Soni – birlikda



Tahlillarga ko`ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **44,1** foizi (594 ta) jismoniy shaxslar va **55,9** foizi (752 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to`g`ri kelgan.

## *Eslatib o`tamiz:*

O`z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog`liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma`lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,



- "Ishonch telefon"lari:  
• (71) 230-81-80/ 230-81-82

- Davlat statistika qo`mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish:  
• (71) 230-81-81

- Pochta manzili - [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)
- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi  
[pm2.gov.uz](http://pm2.gov.uz) orqali murojaat etishingiz mumkin.

### **Davlat statistika qo`mitasi**

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

**Nashr uchun mas`ul:**

**F.Berdibayev**  
**(0371) 230-81-24**